XALQ DEPUTATLARI PISKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-iyul VI-85-72-10-142-K/24 Piskent tumani

Piskent tumanidagi istirohat bog‘i va ziyoratgohlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 12.10.2011-yildagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli, O‘zbekiston Respublikasining 02.09.1993-yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonunlariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisod va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha yig‘ilish bayonlari hamda ekspert xulosalarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisod va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha 2024-yil 30-yanvardagi 05-19-01-115-son va 2024-yil 22-apreldagi 05-19-01-1128-son yig‘ilish bayonlari hamda ekspert xulosalari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Piskent tumani Ko‘lota mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan nomsiz ziyoratgohga “Qirqqiz” nomi berilsin.

3. Piskent tumani Kultepa mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan nomsiz ziyoratgohiga “Bobog‘oziy Turk To‘g‘on” nomi berilsin.

4. Piskent tumani Mo‘minobod mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan nomsiz istirohat bog‘iga “Yoshlar” nomi berilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan geografik obektlarga nom berilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar qonunchilikda belgilangan muddatlarda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Kadastrlar Agentligiga taqdim etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



KARIMOV XOLMUROD
ABDURAXMONOVICH